

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

YUNUSOVA JAMILA BOLTABOYEVNA

**SHAVKAT RAHMON SHE‘RIYATINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Yunusova Jamila Boltaboyevna

Shavkat Rahmon she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari 3

Yunusova Jamila Boltaboyevna

Linguopoetic features of Shavkat Rahmon's poetry 29

Юнусова Жамила Болтабоевна

Лингвопоэтические особенности поэзии Шавката Рахмона 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 59

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

YUNUSOVA JAMILA BOLTABOYEVNA

**SHAVKAT RAHMON SHE‘RIYATINING LINGVOPOETIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1732 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldashev Ma'rufjon Muhammadjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muhayyo Karimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ahmedova Nargiza Shixnazarovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "4" dekabr soat 14"⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (871) 233-36-50; faks: (871) 233-71-44; email: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (91 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" noyabr da tarqatildi.

(2025-yil "20" noyabr dagi 14 raqamli reyestr bayonnomasi)

N.M.Mahmudov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filol. fan. d-ri, professor

A.M.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, filol. fan. d-ri (DSc), katta ilmiy
xodim

D.S.Xudoyberganova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol. fan.
d-ri, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda tilni egasidan ajratmagan holda tadqiq etuvchi antropotsentrik yo‘nalish jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, badiiy asar tilini o‘rganishda turli til birliklarining ijodkor badiiy maqsadini yoritishga xizmat qiluvchi ifoda imkoniyatlarini tadqiq etish muhim masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda lingvopoetika sohasi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tadqiqot tamoyillaridan foydalangan holda o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda, shuningdek, tilning ifoda imkoniyatlarini chuqur o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ta’sirida rivojlanib bormoqda. Zamonaviy jamiyatda globallashuv va raqamli muloqot sharoiti tildan foydalanish uslublarini o‘zgartirmoqda, bu esa milliy tilning ijtimoiy-madaniy va estetik vazifalarini yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo qilmoqda. Lingvopoetikada yozuvchi va shoirlarning tafakkur tarzi, tajribasi va his-tuyg‘ularining til vositalari orqali qanday ifodalanishi tadqiq qilinib, ushbu soha tilning lingvopoetik aktuallashgan birliklari mohiyatini tushuntirish imkoniyatini yaratadi. Bu borada yozuvchi yoki shoirlarning asarlari tilini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida yangi ilmiy konsepsiyalar asosida badiiy til muammolari, badiiy matnga inson omili nuqtayi nazaridan yondashuv, til birliklarining badiiy matni shakllantirishdagi o‘rni va vazifalarini o‘rganish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bu yo‘nalishda mustaqil tadqiqot sohalaridan biri sifatida lingvopoetika jadal rivojlanmoqda. Lingvopoetika badiiy matn tili, shakl va mazmun birligi, til birliklarining badiiy matn ichida estetik vazifa bajarish xususiyatlari va mexanizmini tadqiq etish bilan birga ijodkorning badiiy til mahorati, til boyligi va ma’no ifodalash uslubi kabi nazariy va amaliy masalalarni o‘rganadi. Shu ma’noda she’riy tilning estetik imkoniyatlarini aniqlash, milliy tildan shoirning foydalanish mahoratini yoritish lingvopoetikaning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ma’naviy va madaniy qadriyatlarimizni ulug‘lash, ona tilimizga bo‘lgan hurmatni kuchaytirish masalalari yetakchi o‘ringa ko‘tarildi. Zero, “dunyodagi qadimiy va boy tillardan bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”¹. Shu nuqtayi nazardan til birliklarining poetik vazifalarini aniqlash, lingvopoetikaning nazariy masalalarini tadqiq etish, uning yangi fanlar tizimidagi o‘rnini belgilash bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biridir. Xususan, muayyan ijodkor asarlari tilini lingvopoetik yo‘nalishda tadqiq etish o‘zbek adabiy tilining rivoji va takomilini belgilashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining jasur shoiri Shavkat Rahmon o‘z she’rlari bilan o‘zbek tili badiiyatini yuqori bosqichga ko‘targan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Shoir ijodi adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan chuqur o‘rganilgan. Uning she’riyati

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

tilini lingvopoetik aspektda tadqiq etish esa bugungi milliy tilshunosligimizning dolzarb muammolaridan biridir. Zero, Shavkat Rahmon o‘zbek she‘riyatini yangi ohanglar, yangi badiiy ifodalar bilan boyitib, milliy tilimiz imkoniyatlarini munosib tarzda ko‘rsata olgan va unga yangicha ruh bera olgan shoir hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-sonli “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi; 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda dunyo filologlari e‘tiboridagi masalalardan biri badiiy asarlarda turli til birliklarining ijodkor badiiy niyatiga xizmat qilishini o‘rganishdir. Badiiy asarning til xususiyatlariga bag‘ishlangan ilk tadqiqotlar V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.A.Potebnya, L.V.Shcherba, V.Y.Zadornova, A.A.Lipgart kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ularda badiiy matn tadqiqi jarayonida til hodisalari tahliliga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ta‘kidlanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham badiiy til muammolari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi kabi masalalar maxsus o‘rganilgan. Jumladan, E.Qilichev, B.O‘rinboyev, S.Karimov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, I.Mirzayev, M.Yoqubbekova, M.Yo‘ldoshev, D.Andaniyazova, Sh.Toshxo‘jayeva, Z.Muqimova, M.Abdupattoyev, Z.Ma‘rufova, Sh.Norova, M.To‘xtaboyeva, G.Andaniyazova, A.Ahmedova kabi tilshunoslarning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega². Shuni ta‘kidlash lozimki, o‘zbek

² Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент, 1982; Ўринбоев Б, Қўнгулов Р. Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990; Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари: Ўқув қўлланма. – Самарқанд, 1994; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012; Махмудов Н. Ойбек шеъриятидаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Shu muallif. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Shu muallif. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан.

filologiyasida ko‘plab ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahorati lingvopoetik aspektda tadqiq etilgan. O‘zbek xalqining jasoratli shoiri Shavkat Rahmonning she‘rlari tilining o‘ziga xosligi, fikrlardagi tiniqlik, so‘zlarga yuklangan shiddatli ruh va keskirlik, kutilmagan badiiy yechimlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shavkat Rahmon ijodi adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda o‘rganilgan³. Tilshunoslikda Shavkat Rahmon she‘riyatida metaforani hosil qiluvchi leksik-grammatik vositalar tadqiq etilgan bo‘lsa-da⁴, ammo bu kunga qadar shoir she‘rlarining badiiy til xususiyatlari lingvopoetik aspektda maxsus o‘rganilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek tili yo‘nalishi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shavkat Rahmon she‘rlaridagi poetik aktuallashgan til birliklarini aniqlash hamda ularni lingvopoetik tadqiq etish orqali shoirning tildan foydalanish mahoratini, o‘zbek adabiy tiliga qo‘shgan hissasini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Shavkat Rahmon she‘riyatining individualligini ta‘minlovchi fonetik-fonografik vositalar va onomatoplarning poetik imkoniyatlarini ochib berish;

epitet, metafora, jonlantirish va o‘xshatish qurilmalarining tadqiqi orqali muallifning so‘z qo‘llash mahoratini yoritish;

poetonimlar, okkazonal birliklar va dialektizmlarning shoir she‘rlari badiiyatini oshirishdagi o‘rnini yoritib berish;

takrorlanuvchi birliklar, xiazm, antitezaning struktur-semantik va poetik tabiatini aniqlash;

ironiya va murojaat birliklarining shoir she‘rlaridagi o‘rnini yoritish.

д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Ёўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Shu muallif. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009. – 314 б.; Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019; Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик birliklarнинг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2017; Муқимова З. Ўткир Ҳошимов асарлари тилининг лингвопоэтик ва лингвомаданий хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020; Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Маъруфова З.Н. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022; Norova Sh. Asqad Muxtorning badiiy til mahorati (“Chinor” romani misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023; To‘xtaboyeva M. Botuning tilshunoslikka oid qarashlari va she‘riyati lingvopoetikasi: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024; Andaniyazova G. Sharof Boshbekov asarlarining lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024; Axmedova A. Badiiy matndagi folklorizmlarning lingvopoetik xususiyatlari (Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlari misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2024.

³ Муллахўжаева Р. 80-йиллар ўзбек шеъриятида поэтик тафаккурнинг янгилиниши ва Шавкат Раҳмон ижоди: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020.

⁴ Юнусова Д. Шавкат Раҳмон шеъриятида метафорани ҳосил қилувчи лексик-грамматик воситалар тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022.

Tadqiqotning obykti sifatida Shavkat Rahmonning “Rangin lahzalar”, “Yurak qirralari”, “Ochiq kunlar”, “Gullayotgan tosh”, “Uyg‘oq tog‘lar”, “Hulvo”, “Sokin isyon” “Saylanma” nomli kitoblari, “Abadiyat oralab”, “Zulfiqor ruh” she‘riy to‘plamlaridagi she‘rlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Shavkat Rahmon she‘rlaridagi poetik maqsadga xizmat qiluvchi til birliklari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyoslash, zidlash, tasniflash, kontekstual, kognitiv, leksik-semantik hamda lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Shavkat Rahmon she‘rlarida qo‘llangan *uch sariq ilon, temir pardalar, tuhmat toshi* kabi muallif metaforalari, *zulfiqor ruh, sokin isyon, tirik so‘z, soqov quduq* singari xususiy epitetlar, *haqorat – xotirga sanchilgan nayza, muhabbat – chiroyli kapalak* kabi individual o‘xshatishlarning emotsional-estetik xususiyatlari dalillangan;

shoir she‘rlarida qo‘llangan *Muqanna, Iskandar, Chingizxon, Mashrab, Hotam, Bilol, Mansur Xalloy* singari poetonimlarning badiiy matn serqatlamligini ta‘minlashdagi lingvopoetik imkoniyati, shoir ijod qilgan davr ruhini aks ettiruvchi *harbiston, ozodruh, falajruh* kabi okkazional birliklar va *hulvo, shomurut* dialektizmlarining estetik vazifasi asoslangan;

Shavkat Rahmon she‘rlarida ironiya orqali mavjud ijtimoiy vaziyatga subyektiv munosabat ifodalanishi, *Shoirajon, Nodirajon* kabi murojaat birliklarining konnotativ ma‘no hosil qilishi hamda badiiy matnni takror va xiazmlar vositasida shakllantirishi isbotlangan;

shoir she‘rlarida muayyan badiiy maqsad bilan qo‘llanib zid mazmun hosil qilgan *tillo oldilar-u zahar berdilar, zig‘irday aybingni shoxga ildilar, mag‘zi qayg‘udan po‘stlog‘i zardan* kabi iboralarning lingvopoetik imkoniyati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Shavkat Rahmon she‘riyatining til xususiyatlarini o‘rganish natijasida olingan xulosalar o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish uchun manba bo‘lishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

Shavkat Rahmon she‘riyatining lisoniy-badiiy xususiyatlariga doir materiallar va xulosalar 80–90-yillar o‘zbek she‘riyatining badiiy, lingvistik xususiyatlari haqida ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi, uning nazariy asoslarini boyitishi dalillangan;

Shavkat Rahmonning badiiy til mahorati, shoir tomonidan qo‘llangan badiiy tasvir vositalaridan foydalanishiga doir tadqiqot natijalari filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilarning bilim va malaksini oshirishda nazariy manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, ilmiy ish davomida ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, tahlilga tortilgan lisoniy materiallarning asoslilik, masalalar bayonining izchilligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shoir she'riyatining lisoniy-badiiy xususiyatlariga doir materiallar va xulosalar o'zbek tili lingvopoetikasini yangi ma'lumotlar bilan boyitganligi hamda she'riy matnni lingvopoetik tahlil qilish metodologiyasi bo'yicha to'plangan tajribalar ushbu sohaga oid izlanishlarda ilmiy manba vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ushbu dissertatsiya materiallaridan "Badiiy matn lingvopoetikasi", "Badiiy matn tahlili", "Badiiy tahlil asoslari" kabi maxsus kurslarni o'qitishda; lingvopoetikaga oid darsliklar, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shavkat Rahmon she'rlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq qilish natijalari asosida:

Shavkat Rahmon she'riyatining badiiy-g'oyaviy mazmuni, uning o'ziga xos badiiy tili, o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlardan; Shavkat Rahmon she'rlarida qo'llangan *uch sariq ilon, temir pardalar, tuhmat toshi* kabi muallif metaforalari, *zulfiqor ruh, sokin isyon, tirik so'z, soqov quduq* singari xususiy epitetlar, *haqorat – xotirga sanchilgan nayza, muhabbat – chiroyli kapalak* kabi individual o'xshatishlari orqali shoir badiiy mahorati, o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlari o'rganilgan o'rinlardan; dissertatsiya ilmiy natijalari, xulosa va materiallaridan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyuldagi 01/4-3024-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha mazmuni yangi materiallar bilan boyigan.

Shavkat Rahmon she'rlarida qo'llangan *Muqanna, Iskandar, Chingizxon, Mashrab, Hotam, Bilol, Mansur Xalloy* singari poetonimlarning badiiy matnning serqatlamliligini ta'minlashdagi lingvopoetik imkoniyati, *Shoirajon, Nodirajon* kabi murojaat birliklarining konnotativ ma'no hosil qilishi va badiiy-estetik vazifasiga oid nazariy xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2023-yillarda bajarilgan IL-21091506 "O'zbek ismlarining izohli imlo lug'ati va mobil ilovasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 30-iyuldagi 01/4-3355-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihada tasvirlangan ismlarning izohi yanada mukammallashgan.

Tadqiqotda keltirilgan Shavkat Rahmon ijodining badiiy-g'oyaviy mazmunini yoritib berishda ironiya, takror va xiazmlarning o'rni, shoir she'rlarida muayyan badiiy maqsad bilan qo'llanib zid mazmun hosil qilgan *tillo oldilar-u zahar berdilar, zig'irday aybingni shoxga ildilar, mag'zi qayg'udan po'stlog'i zardan* kabi iboralarning badiiy matnning emotsional

ta'sirini oshirishdagi lingvopoetik imkoniyatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali ijodkorlari tomonidan 2025-yil ikkinchi choragida efirga uzatilgan "Bir asar tarixi" radioeshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali davlat muassasasi 2025-yil 21-iyuldagi 11-son ma'lumotnomasi). Natijada muallifning ilmiy-nazariy qarashlari va xulosalari asosida eshittirishning mazmuni boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan 2 ta respublika, 7 ta xalqaro konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 168 sahifani tashkil etib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**She'riy matnning lingvopoetik tadqiqi muammolari**" deb nomlangan. Bobda jahon va o'zbek tilshunosligida badiiy matnning tadqiq etilishi, xususan, she'riy matn va Shavkat Rahmon she'riyatining til xususiyatlari o'rganilishi kabi masalalar yoritilgan.

Ushbu bobning "**Lingvopoetika: nazariy va amaliy tadqiqotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi faslida XX asrda yangi tadqiq yo'nalishi sifatida dunyoga kelgan, bugungi kunda o'zining ilmiy qonuniyatlarini kashf qilgan lingvopoetika yo'nalishida bajarilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar haqida bahs yuritilgan.

Rus tilshunosligida o'tgan asrning 30-yillarida shakllangan, badiiy matn tahliliga asoslangan ushbu soha hozirda o'zining tadqiqot metodlariga ega. Lingvopoetika badiiy matnni tahlil qilishning tilshunoslik va adabiyotshunoslik hamkorligida filologik nuqtayi nazardan o'rganish bosqichini boshlab bergan va badiiy matn shakli va mazmun birligini, tilini, til birliklarining badiiy qimmatini, lingvopoetik vazifasini hamda uning kitobxonga estetik ta'sir kuchini o'rganadi.

Lingvopoetika asosida badiiy asarning soʻz sanʼati sifatidagi mohiyati ochib berilishi mumkinligi haqidagi asosli mulohazalarni V.Y.Zadornova hamda A.A.Lipgart asarlarida kuzatamiz⁵. V.Y.Zadornovanning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “Badiiy matnni oʻrganish shunchaki muayyan stilistik vositalar va til vositalarini aniqlashga qaratish emas, balki badiiy matnning estetik taʼsirini tushuntirishdan iboratdir”⁶. A.A.Lipgart asarlarida esa badiiy matnni lingvopoetik tadqiq etish nazariyasi va amaliyoti masalalari: lingvopoetikaning antologik holati, unda qoʻllanayotgan metodlarning xususiyatlari, lingvopoetikaning turdosh filologik fanlar – lingvistik stilistika va adabiyotshunoslik bilan aloqasi oʻrganilgan⁷.

Oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tili, badiiy nutq stilistikasi hamda lingvopoetika sohasidagi tadqiqotlar haqida soʻz borganda, R.Qoʻngʻurov, I.Qoʻchqortoyev, Q.Samadov, B.Yoʻldoshev, X.Doniyorov va S.Mirzayev, L.Abdullayeva, E.Qilichev, P.Qodirov, S.Karimov, B.Umurqulov, X.Abdurahmonov va N.Mahmudov, M.Yoʻldoshev, D.Andaniyazova kabi olimlarning nomlarini tilga olish mumkin⁸.

Tilshunos olim N.Mahmudov taʼkidlaganidek: “Badiiy, xususan, sheʼriy nutqda har bir soʻz boshqa har qanday kontekstdagidan salmoqli va nafisroq boʻladi. Sheʼriyatda soʻzning vazifasi ortadi, soʻz estetik butunlik sifatidagi asarning uzviy qismiga aylanadi. Shoir oʻz oʻrnida qoʻllagan, sheʼrda munosib joyini topa olgan soʻzgina estetik imkoniyatini toʻlaligicha namoyon etmogʻi mumkin. Oʻrinsiz qoʻllangan birgina soʻz, hatto birgina qoʻshimcha yoki tovush ham asarni chippakka chiqarishi tayin”⁹.

Badiiy matnning nazariy va amaliy tadqiqi tilshunoslikning muhim yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Badiiy matnning nazariy tadqiqi – bu badiiy asarlarning umumiy nazariy asoslari, tilning estetik butunlik hosil qilishi,

⁵Задорнова В.Я. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М., 1984; Shu muallif. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1992; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление: теория и метод. – М., 1994; Shu muallif. Метаязык лингвистических исследований // Терминоведение. – М., 1994. – №1. – С. 137-140; Shu muallif. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и практика: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1996; Shu muallif. Методы лингвопоэтического исследования. – М., 1997; Shu muallif. Основы лингвопоэтики. – М., 1999.

⁶Задорнова В.Я. Koʻrsatilgan asar. – 152 b.

⁷Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики: учебное пособие. – М.: Диалог-МГУ, 1999. – С. 165.

⁸Кўнгулов Р. Ўзбек тили стилистикасидан очерклар. – Самарканд, 1975; Қўчқортгов И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1975; Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти (бадий услуб). – Тошкент: Ўқитувчи, 1991; Йўлдошев Б. Бадий нутқ стилистикаси. – Самарканд, 1982; Юлдашев Б. Стилистический анализ узбекской художественной прозы. – Ташкент: Ўқитувчи, 1989; Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1962; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стиль. – Тошкент: Фан, 1988; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982; Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: Фан, 1973; Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. д-ри. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981; Маҳмудов Н. Ўзимиз ва сўзимиз. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997; Йўлдошев М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009; Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

⁹Маҳмудов Н. Сўзни қайлик сайлагандек севиб сайла // Ҳақиқат – ижод байроғи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986.

adabiy jarayon va metodologiya nuqtayi nazaridan o'rganishdir. Nazariy tadqiqotning maqsadi poetik matn nazariyasini yaratish, turli ijodkorlar asarlarini tadqiq etish orqali nazariy xulosalar chiqarishdan iborat bo'ladi. Masalan, rus tilshunosligida B.V.Tomashevskiy, L.V.Shcherba, D.N.Shmelev, V.V.Vinogradov, G.V.Stepanov, O.S.Axmanova, V.Y.Zadornova, A.A.Lipgart, O.I.Moskalskayalarning izlanishlari, o'zbek tilshunosligida N.Mahmudov, I.K.Mirzayev, G.Rixsiyeva, M.Yo'ldoshevlarning olib borgan tadqiqotlari sohaning rivojlanishida nazariy asos bo'la oladi.

Badiiy matnning amaliy tadqiqida esa amaliy tadqiqotda muayyan poetik asarlar yoki shoir ijodi tahlil qilinadi. Bu tahlil nazariy bilimlarga asoslanadi, ammo ularni bevosita amaliy misollarda qo'llashni ko'zda tutadi. Aniq she'r yoki asarda mazmun va shakl birligi, ijodkorning tildan foydalanishdagi individual til mahorati, til birliklarining badiiy matnda estetik vazifa bajarishiga doir tahlillar orqali amaliy tadqiqot olib boriladi va ilmiy xulosalar chiqariladi. Masalan, bu borada R.Normurodov, M.Yo'ldoshev, S.Boymirzayeva, Z.Choriyeva, D.Shadiyeva, Sh.Toshxo'jayeva, D.Shodmonova, S.Umirova, X.Ibragimov, J.Matnazarovlarning tadqiqotlarini tilga olish mumkin. Ular muayyan ijodkor asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etganlar.

Birinchi bobning ***“O'zbek tilshunosligida she'riy matn tahlili masalalari”*** deb nomlangan ikkinchi faslida o'zbek filologiyasida bajarilgan she'riy matnlarning lingvopoetik tadqiqi o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida she'riy nutqning lingvopoetik tadqiqiga bag'ishlangan bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, professor I.Mirzayev doktorlik dissertatsiyasida o'zbek she'riyatining badiiy-estetik ifoda nuqtayi nazaridan xarakterli bo'lgan til elementlariga e'tibor qaratadi va ularga shoir mahoratini ko'rsatuvchi asosiy omil sifatida qaraydi¹⁰. S.Karimovning *“O'zbek tilining badiiy uslubi”* nomli doktorlik dissertatsiyasi stilistik aspektda bo'lsa-da, unda lingvopoetik masalalar ham qisman o'z aksini topgan¹¹.

G.Muhammadjonovanning *“80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi”* nomli dissertatsiyasida 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyati poetik til xususiyatlari tahlili asosida shu davr she'riyati tilining o'ziga xos leksik-semantik xususiyatlari yoritib berilgan.

S.Umirovaning Usmon Azim she'riyati tiliga bag'ishlangan dissertatsiyasida shoir ijodiga xos bo'lgan individual jihatlar, poetik sintaksis elementlarining funksional-stilistik o'ziga xosliklari hamda adabiy til me'yor uchun g'ayriodatiy bo'lgan sintaktik qurilmalarning mantiqiy va grammatik

¹⁰ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992.

¹¹ Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадий услуби: Филол. фан. д-ри дисс. Автореф. – Тошкент, 1993. – Б. 6.

aloqasi; gapda, frazada, umuman, matnda soʻzlarning, sintaktik qurilmalarning gʻayriodatiy oʻrinlashishi poetik individuallik nuqtayi nazaridan oʻrganilgan¹².

M.Abtupattoyevning “Oʻzbek tilining poetik sintaksisi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi shu sohada boshqa ishlardan badiiy matn nazariyasi oʻrganilgani bilan ajralib turadi. Tadqiqotda sheʼriy matn poetik nutqining poetik tafakkur mahsuli va sintaktik ifoda shakli sifatida shakllanish jarayoni; gaplar, murakkab sintaktik butunliklarning asosiy kommunikativ birlik sifatidagi semantik va struktur lisoniy belgilari, uning struktural-semantik jihatdan bir butun sintaktik tizim ekanligi, axborotni uzatishdagi kompozitsion-sintaktik strukturani tashkil etuvchi boshlanma, fikr rivoji, tugallanmaning matndagi oʻrni, poetik aktuallashuvi, kommunikatsiya jarayonidagi tema-rematik munosabati aniqlangan hamda idiostil va idiolekt tushunchalarining mohiyati, uslubiy, vazifaviy belgilari, nutq muallifining tilning yuqori sathidagi lisoniy imkoniyatlari yoritib berilgan.

J.Matnazarovning “Matnazar Abdulhakim sheʼriyati lingvopoetikasi” nomli tadqiqotida shoir asarlarida badiiy til xususiyati uning sheʼrlarida qoʻllangan tasviriy vositalar va barqaror birikmalar, leksik va fonetik, onomastik birliklar, dialektizmlarning lingvopoetik tahlili orqali koʻrsatib berilgan¹³.

Usmon Nosir badiiy til mahorati J.Yuldashev tomonidan oʻrganilgan¹⁴. Ushbu tadqiqotda shoir sheʼrlarida qoʻllangan soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlaridan lingvopoetik va mantiqiy taʼkid maqsadi bilan foydalanishdagi oʻziga xosligi ochib berilgan. Z.Marufovning “Mumtoz badiiy matnlarda “goʻzallik” konseptining verballashuvi” nomli dissertatsiya ishida XV asr adabiyoti matnlarida leksik birliklar orqali estetik bahoning ifodalanishi, metafora, metonimiya, metaftonimiya, paremiologik birliklar, pretsedent nomlar, fitonimlar, zoonimlar, belgi bildiruvchi leksemalar vositasida goʻzallik unsurlarining lisoniy voqelanishi kognitiv, pragmatik, leksik-semantik tahlillar asosida yoritib berilgan¹⁵.

M.Toʻxtaboyevaning “Botuning tilshunoslikka oid qarashlari va sheʼriyati lingvopoetikasi” nomli tadqiqot ishida Botuning ilmiy merosi asosida uning oʻzbek tilshunosligi rivojiga qoʻshgan hissasi oʻrganilgan. R.Tojimatovning “Muhammad Yusuf sheʼriyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlari”¹⁶ nomli tadqiqotida sheʼriy matnlar lingvopoetikasining asosiy tamoyillari oʻz ifodasini topgan.

Umuman, oʻzbek tilshunosligida sheʼriy matnlar lingvopoetikasining asosiy tamoyillari ijodkorlar badiiy til xususiyatiga oid ishlarda oʻrganilgan.

¹²Умирова С. Ўзбек шеърлятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърляти мисолида): филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2019.

¹³ Matnazarov J. Matnazar Abdulhakim sheʼriyati lingvopoetikasi: Filol. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. avtoref. – Urganch, 2022.

¹⁴ Юлдашев Ж. Усмон Носир шеърляти лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2023.

¹⁵ Маруфова З.Н. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Фарғона, 2022.

¹⁶ Tojimatov R. Muhammad Yusuf sheʼriyatining lingvokonseptual va lingvopoetik xususiyatlari: Filol. fan. boʻyicha falsafa d-ri (PhD) ... diss. – Namangan, 2024.

Ammo Shavkat Rahmon she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari alohida tadqiq etilmagan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Shavkat Rahmon she'riyatida badiiyatni ta'minlovchi fonetik va leksik-semantik birliklar tadqiqi**” deb nomlanadi. Bobning “*Shavkat Rahmon she'riyatining individualligini ta'minlovchi fonetik-fonografik vositalar*” deb nomlanuvchi faslida she'riy matnda fonetik birliklarning aktuallashuvi unli tovushlarning orttirilishi, undosh tovushlarning qavatlanishi, alliteratsiya, assonans kabi fonetik va fonografik vositalar va onomatoplarning badiiy-estetik xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

Shoir she'rlarida lirik qahramonning voqelikka munosabati fonetik-fonografik vositalar orqali kuchli poetik ifodasini topgan. Masalan,

*G'ichirlaydi bezovta chinor,
Ogoh etib shovullaydi: **ku - u - z**,
Ammo uchta sap-sariq ilon
Og'ochlarga o'rlardi, afsus. (“Bobo chinor...”)*

Kuz haqida shoirlar tomonidan turfa xil she'rlar yaratilgan. Ammo Shavkat Rahmonning uslubi, so'z va tovushlarga yuklayotgan his-tuyg'ular bo'yog'i o'quvchiga zavq beradi. Yuqoridagi she'riy parchada **ku-u-z** so'zidagi **u** ning ikkilantirilishi chinor shovullashiga monand ohangdorlik kasb etgan. Agar bu o'rinda **u** harfi bitta bo'lganida muallifning maqsadi yuzaga chiqmagan, zarur emotsiyani berolmagan bo'lar edi. Badiiy adabiyotda kuzning ko'pincha mahzun fasl sifatida talqin etilishi bu satrlarda ham **ilon**, **afsus** kabi leksemalarda ifoda topgan. Uchta sap-sariq ilonning uchta kuz oyiga nisbat berilishi ham shoirning o'ziga xos topilmalaridan deyish mumkin.

*Asov ko'ngil ...
ergashar andom,
qadim yo'ldan qayga yetaklar.
Qorong'ilik quyular qandoq,
qandoq titrar edi chechaklar.
O'sib borar qop – qora besha
sovib borar yo'llar tuprog'i.
Ko'ngil tashna
Qondiray desam,
qaynab turar g'amlar bulog'i. (“Qumaru”)*

Lirik qahramonning o'zlikni anglashga bo'lgan ishtiyoqi, harakatsizlikka qarshi ruhiy isyonining tasviri bayonida “**q**” undoshi poetik aktuallashgan. Shoir gorizental va vertikal alliteratsiyadan talaffuzdagi uyg'unlik va matn mazmunining bo'rtib ifodalanishini ta'minlovchi fonetik vosita sifatida foydalangan. Ko'ngli boshlagan yo'lga ergashib ketayotgan lirik qahramonning ruhiy holatini berishda *qadim, qayga, qorong'ilik, quyilmoq, qandoq, qop-qora, qaynamoq* so'zlari nafaqat fonetik jihatdan, balki ma'no-mazmun, g'oya jihatdan ham uyg'unlashib, g'am-anduhga botgan, chorasiz ko'ngil holatini tasvirlaydi. **Q** tovushining portlovchilik xususiyati esa bu holatga qarshi isyon kabi yangraydi va alliteratsiyaning go'zal namunasi

sifatida namoyon bo‘ladi, ayni jarayonda tovushlarning estetik butunlik hosil qilishdagi vazifasi oydinlashadi.

Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional – ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan yana biri assonansdir. Shavkat Rahmon she‘rlarida unlilar takrori ekspressiv ifoda hosil qilar ekan, *chuqur, uzun* so‘zlaridagi **u** tovushining cho‘ziq talaffuz qilinishi ham bu maqsadga uyg‘unlashganini ko‘ramiz. Masalan:

Joylashgansan shunchalar chuqur...
O‘z tubiga yashirgan yurak.
Senga yetib bormaklik uchun
Uzun umrim yetmasa kerak. (“Vatan”)

Keltirilgan she‘riy parchada shoirning vatanga bo‘lgan muhabbati bor bo‘yicha aks etadi. U vatanni shu qadar chuqurga yashirganki, o‘zi ham yetib borishiga shubhasi bor. Vatan uning uchun shu qadar noyob va qimmatbaho bir xazinaki, u bilan bog‘liq tuyg‘uni anglamak uchun umri yetmaydi. Satrlardagi *chuqur, uzun, tub* so‘zlari bilan bog‘liq vertikal va gorizonta yo‘nalishlar assotsiatsiyasi ham “benihoyalik” semasini kuchaytirib, vatan qimmatini yanada oshirishga yordam beradi.

Shoir she‘rlarida alliteratsiya va assonansni parallel qo‘llash orqali poetik ma’no kuchaytirilgan o‘rinlar ham talaygina.

Ana ...quloq soling...
Eshityapsizmi,
Kuylar shoir shamol, kuylar shoir qor,
Shoir qorong‘ilik, shoir tog‘larda
Shoir daryolarning shovullashi bor.

She‘rga **sh** sirg‘aluvchi tovushi ko‘p takrorlanishi ohangga bir qadar silliqlik, muntazamlilik bag‘ishlaydi. Ammo bu silliqlik qavatida bir oz shovqin bor: chunki shamol, qor, qorong‘ilik, tog‘lar, daryolar kuylayapti. Ularning barchasiga muallif shoir nazari bilan boqadi, jonlantiradi, ularning “qo‘shiq” larini tinglay oladi. **O** tovushining takrori esa she‘rga bu mo‘jizalardan hayratlanishga o‘xshash bir ohang qo‘shadi. Shavkat Rahmon – tabiatning har bir zarrasidan mo‘jiza topa olgan shoir. Kuzatilganidek, she‘riy matnda g‘oyaviy-badiiy mazmunning emotsional ifodalanishida tovushlar muhim poetik vazifa bajarmoqda.

Tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli poetik nutqda **onomatopeya** sifatida talqin etiladi. Shavkat Rahmon – kuchli so‘z sinchisi, u biror so‘z yoki tovushni qo‘llashda o‘ta mas’uliyatli. Shoirning hech bir she‘rida uzoq tavsiflarni uchratmaymiz. Quyidagi tovushga taqlid birliklar vositasida yaratilgan ifodalar shoirning so‘z qo‘llash va obrazli tasvir yarata olish mahoratidan dalolat:

Na gumbur-gumbur-u
na qarsa-qursa,
faqat shivir-shivir sinaydi doshing.
Ko‘rinmas kuch borday go‘yo har fursat
tirik nishon bo‘lur zarblarga boshing.

faqat visir-visir... ("Tunov kuni")

Shoir ochiq-oshkoralik, ur-to'polon, kurash va shunga o'xshash keng va sershovqin ijtimoiy hodisalar mazmunini birgina ***gumbur-gumbur, qarsa-qursa*** taqlid so'zlari bilan qamrab oladi. G'iybat, fisq-u fasod kabi illatlar uchun ***shivir-shivir, visir-visir*** taqlidlaridan foydalanadi va o'sha davr og'riqlari, ojiz tomonlari, xiyonat, fitnalar, sotqinlik kabi shoir ruhiyatiga azob bergan hodisalarni ixcham, g'oyat bo'yoqdor tasvirlab, ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Demak, onomatoplar hodisani tez va jonli tasviralay olishi bilan badiiy qimmatga ega, she'riy matnda shoir ulardan fonetik vosita sifatida voqelikning obrazli tasvirini yaratishda foydalangan. Shuningdek, fonetik-fonografik vositalarning turli darajalarda poetik aktuallashuvi ifodalanayotgan g'oyaviy-badiiy mazmunning obrazli, emotsional tarzda ifodalanishida, musiqiylik hosil qilishida lingvopoetik ahamiyat kasb etgan.

Bobning ikkinchi fasli "***Epitet va metaforalarning poetik niyatni yuzaga chiqarishdagi o'rni***" deb nomlanadi.

Shavkat Rahmon she'riyatida badiiy tasvir vositalari ichida epitet badiiy niyatni aniq yetkazishda, shoir ijodida faol qo'llanuvchi poetik obrazlarning shakllanishida muhim o'ringa ega. *Bo'ydoq shamol, oq ro'mol yopingan yig'i, zulfiqor ruh, sokin isyon, tirik so'z, soqov quduqlar* kabi poetik bo'yoqdor individual epitetlar shoir badiiy mahoratiga chizgilar berib, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarining kengligini namoyon qilgan.

Har bir ijodkorning o'z sevimli epitetlari bo'ladi, ular shoirning individual uslubining shakllanishida ma'lum darajada xizmat qiladi.

Shavkat Rahmon ijodida ham she'rdan she'rga ko'chib o'tuvchi faol epitetlar bor, ulardan biri *keksa* sifatlovchisidir.

Yoz tuni. Bog' shira uyquda.

Keksa chinor suradi xayol. ("Yoz tuni")

Chinor – ko'p yillik daraxt, bu xususiyatiga ko'ra shoir uni uzoq umr ko'rgan, dunyoning ko'p ishlariga guvoh dono mo'ysafidga o'xshatadi. Daraxtga inson xususiyatini berishda chinorning ko'p yillik o'simlik ekanligi (uzoq umr), tanasidagi po'stlog'ining burishganligi (ajinni eslatadi) kabi belgilar uyg'unligi asos vazifasini o'tagan. Bundan tashqari, daraxtning shamolda shovullab, shoxlari chayqalib turishi manzarasi mo'ysafidlarga xos dunyoning ishlariga boqib bosh chayqab o'tirgan nuroniy holati bilan tasviriy assotsiatsiya hosil qiladi.

Shavkat Rahmon ijodida *irib ketgan orzu, chirib yotgan tuyg'u, o'ynoqi so'zlar, yirtilgan ko'lka, yuvosh zulmat, teran yig'i* kabi ohorli individual epitetlar ko'p uchraydi.

Zulfiqor ruh kerak,

kerak chin yog'du,

chin ishq yog'dulari bag'rimga to'lsin,

jismimni toblasin faqat chin og'riq,

chechaklar qop-qora bo'lsa-da bo'lsin. ("Tariqat")

*To'rt fasl qorishib o'tdi yorug'dan,
bag'rimni chayonlar chaqdi anduhim,
jo'mardlar deganim kechgan og'riqdan
darveshga aylandi **zulfiqor ruhim.** ("Girya")*

Manbalarda *zulfiqor* so'zining ma'nosi quyidagicha izohlanadi: 1. Muhammad (s.a.v.)ning Badr jangida qo'lga tushirgan ikki uchli shamshiri; keyinchalik Hazrat Aliga, so'ng boshqa xalifalarga o'tgan. 2. Umuman, keskir, o'tkir (qilich haqida)¹⁷.

Rivoyatlarga ko'ra, qilichning ikkita uchi bo'lib, ularning biri **ilm**, ikkinchisi **adolatni** tamsil etgan. Qilichning bir uchi g'animni yaralasa, ikkinchisi do'stlarga shifo bag'ishlar ekan. Shavkat Rahmon "qilichining" bir uchi bilan millatni uyg'otishga, loqaydlik botqog'idan tortib chiqarishga, erkka chorlasa, "ozodlik" ilmidan saboq bersa, ikkinchi uchini esa Vatan bosqinchilariga, siyosiy tuzum zo'rvonliklariga qarshi qaratadi. O'z hayotining maslagiga, ijodining mazmuniga aylangan mana shu ikki xususiyat uning ruhiyatiga "zulfiqor" sifatini beradi.

Zulfiqor epitetining *keskirlilik, o'tkirlilik* semasi shoir tariqatining asosini tashkil qiladi deyish mumkin. Ikkinchi she'riy parchada *zulfiqor* ruhning "sinishi", ya'ni darveshga aylanishi bayon etiladi. Jo'mardlarning – eldosh yaqinlarning, o'g'lonlarning tortgan og'riq-azoblari shoirning keskir ruhini "sindiradi". Misralarda *darvesh* va *zulfiqor* so'zlarini birga qo'llab, kontrast usulida ifoda kuchaytirilgan: *zulfiqor* so'zining mazmuniy maydonidagi *keskir, o'tkir, shiddat, qattiq* semalari o'rnini *darvesh* leksemasiga tegishli *muloyim, xokisor, yolg'iz* semalari egallab, o'quvchi tasavvurida jo'mardlar og'riqlardan karaxt bo'lgan va bu ikki kurash zalvoridan ezilgan, yolg'izlangan, taqdirga tan berolmay azobda qolgan odam qiyofasi namoyon bo'ladi. She'rda intertekstuallik hodisasining ham qo'llanilishi o'quvchiga estetik zavq berishdan tashqari Alining qilichi haqidagi ma'lumotlar mazmun-mohiyatining zamonaviy she'riyatdagi talqiniga ham misol bo'ladi.

Shoirning "Qo'qon shamoli haqida rivoyat" she'rida ham birikmali epitetlarning noyob namunalarini ko'rish mumkin:

*Endi yetim gullar nafaslarimas,
ajal to'kib ketgan qon hidi yelar.
Endi ikkimizning qa'rimizdan ham
oq ro'mol yopingan
bir yig'i kelar.*

Ajal to'kib ketgan qon, oq ro'mol yopingan yig'i – shoir uslubiga xos ifodalardan bo'lib, xalqimiz tarixidagi qora kunlarning badiiy tasviriga xizmat qilgan. Ayniqsa, *oq ro'mol yopingan yig'i* epiteti milliy-madaniy qadriyat asosida hosil qilingan. Yig'i har xil bo'lishi mumkin: xursandchilik yig'isi, injiqlik yig'isi, og'riq yig'isi... Ammo Shavkat Rahmonning ichini sirqiratib va shamolning uvullashiga qo'shib kelayotgan yig'i – motam yig'isi. U – qurbon bo'lgan o'g'lonlari uchun aza ochgan ona faryodi. She'rga kiritilgan "oq

¹⁷ <https://izoh.uz/uz/word/zulfiqor>

ro‘mol” detali lingvomadaniy kod sifatida fikrni boyitadi. Yurtimizning ayrim hududlarida oq ro‘mol azadorlik belgisi hisoblanadi. Undan tashqari oq rangning poklik, begunohlik, tozalik, to‘g‘rilik ma‘nosidagi talqinlari ham qurbon bo‘lgan o‘smirlar haqidagi tasavvurlarni to‘ldirishga xizmat qilgan.

Ko‘chma ma‘no hosil qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri **metaforadir**. Metaforalar ijodkorning badiiy mahorati, til sezgisini aks ettirib, badiiy asarning ekspressivligini, tasviriylik va obrazlilik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shavkat Rahmon she‘riyatidagi metaforalar ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Deyarli barcha ijodkorlar faol qo‘llaydigan *tosh* leksemasining turli ma‘no qirralari Sh.Rahmon she‘riyatida turli metaforik talqinlarda namoyon bo‘ladi. Tosh – tabiat bag‘rida uchraydigan kristall jism. Uning konseptual-semantik doirasiga kiruvchi *qattiq, og‘ir, yuk, vazn, zarba, jarohat, jonsiz, katta, kichik* kabi semalarning har biri shoir ijodida o‘zgacha poetik ma‘no kasb etganini kuzatish mumkin:

*Dunyo zolimniki,
Men endi so‘zmas,
faryod-la so‘ylarman o‘zimga o‘zim:
xo‘sh, kimman, nimaman,
ulkan bir qurtday
o‘rmalab o‘tarman **zamon toshidan** (“Xomashyo xususida”)*

Lirik qahramon o‘zini zamon qurtiga o‘xshatadi. Lirik qahramon mustabid tuzum siyosatidan aytar so‘zi bo‘g‘ilib, o‘zining “manqurt”ga (xomashyoga – ipak qurtiga) aylanib qolayotganini his qiladi. Qurtga xos *o‘rmalash, ojizlik, sekinlik, holsizlik* xususiyatlarini o‘zida tuyadi va juda katta tosh-to‘siqlardan asta o‘rmalab o‘tishdan boshqa chorasi yo‘qligini tan oladi. *Zamon toshi* metaforasida shoir yashagan davr, *ruhiy qiynoq, isyon va charchoq* motivlari *zamon toshi* metaforasi vositasida katta mahorat bilan ifodalangan.

Quyidagi parchada esa *tosh* leksemasining “zarba”, “jarohat” semalari faollashtirilib, tuhmat va ig‘vodan yetkaziladigan ma‘naviy jarohat haqida so‘z yuritadi:

*Oqibat, jimgina haykal poyiga
Qaytar-u barini qaytadan boshlar,
kamayar noma‘lum arshdan yog‘ilgan
tuhmat-u ig‘vodan yasalgan toshlar. (“Ommaning ahvoli”)
Tosh ham gullarmi deb,
minglab kaltabin
gurzisin do‘laytib yig‘ilgan paytda,
mardona iljayib, ko‘rasiz, dedim,
bir kuni **gullaydi bu tosh, albatta.** (“Gullayotgan tosh”)*

Adabiyotshunos R.Mullaxo‘jayeva: “Qora tosh xalqning ko‘ngil tubidagi dardi, armonlari, ushalmay qolgan orzulari. Agar bu tosh qotgan armonlar harakatga kelsa, xalq qudratli kuchga aylanadi. Toshning gullashi ushbu

jarayonlarning ramziy ifodasidir”¹⁸, – deya tahlil qiladi. Ya’ni bu o’rinda *tosh* – *armon*, *toshning gullashi* armonlarning ushalishi uchun *kurash* ma’nosini anglatmoqda.

Shavkat Rahmon she’riyatida qo’llangan metaforalar shundan dalolat beradiki, shoir olam hodisalarini o’ta nozik his qilishi barobarida bu hislarini ohorli va o’quvchi xotirasida muhrlanib qoluvchi metaforalar orqali ifodalab, haqiqiy iste’dod egasiga xos lisoniy yaratuvchanlikni namoyon qilgan.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli “*O’xshatish va jonlantirish orqali emotsional-ekspressivlikning ifodalanishi*” deb nomlanadi. Ilmiy manbalarda o’xshatish badiiy adabiyot tilining ifoda aniqligi, tasvir tiniqligini ta’minlashda eng qadimiy tasviriy vositalardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Shavkat Rahmon she’riyati boshqa ijodkorlarda uchramaydigan, ohorli o’xshatishlarga boyligi bilan qimmatlidir.

*Muhabbat – chiroyli kapalak,
qo’rqaman sho’rlikni tutgani.
Kapalak quvganim yodimda,
yodimda yo’q ammo yetganim.* (“Muhabbat”)

Shoirning mashhur she’ridan olingan ushbu parchadagi o’xshatish izohlovchi-izohlanmish munosabatiga qurilgan. Bu esa so’z jozibasini, tasavvur teranligini, fikrning ta’sir kuchini yanada oshirgan. O’xshamish va o’xshatilmish orasidagi o’xshatish asosi – *nozikklik*, *go’zallik*, *nafislik*, *rang-baranglik*, *jozibadorlikni* anglatishi matndan sezilib turibdi. Muhabbat tuyg’usining nozikligi, go’zalligi, unga osonlikcha erishib bo’lmasligi, hislar dunyosining rang-barangligi va hamisha *gul* leksemasi bilan yonma-yon idrok qilinishi mazkur o’xshatishga asos bo’lgan.

Shavkat Rahmon so’zlarning botiniy-pinhoniy ma’nolariga alohida e’tibor qaratgan. Nozik holatlarni yorqin tasvirlashda jonlantirishdan keng va samarali foydalana olgan. Jonlantirish hodisasi ro’yobga chiqayotgan sintaktik birliklarning birida jonlilik, ikkinchisida jonsizlik semasi mavjud bo’lib, bu semalar aslida ushbu birliklarning sintagmatik munosabati uchun monelik qiladi”¹⁹. Badiiy nutqda bunday zid semali birliklarning sintagmatik munosabatga kirishuvi obrazlilikni, ifodalilikni vujudga keltiradi.

*Tong ochar ko’zlarin erinib,
sevinchdan yig’laydi qiyoqlar,
chechaklar jilmayar sevinib,
shamolda cho’milar giyohlar.* (“Tong ochar ko’zlarin erinib”)

Ijodkor jonlantirish uchun bir-biridan chiroyli mantiqiy asoslarni topa olgan. Keltirilgan misolda tongning asta-sekin otib kelishi “erinib” so’zi bilan aloqalantirilsa, qiyoqlarning “yig’lashi”ga tonggi shudringlar bilan “yig’lash”ni idrokda uyg’unlashtiruvchi *tomchi* semasi asos bo’ladi. Chechaklarning “jilmayishi” tong yorug’ida g’unchalarning ochilishi bilan

¹⁸ Муллахўжаева Р. 80-йиллар ўзбек шеърятини поэтик тафаккурнинг янгиланиши ва Шавкат Раҳмон ижоди: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 116.

¹⁹ Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2003. – Б. 81.

aloqalantirilsa, shamolda giyohlarning cho‘milishida ham shudringlar (suv) bilan assotsiativ bog‘lanish hosil qilinadiki, bu kitobxon ongida poetik manzara hosil qilib, uning sezimlariga ta‘sir qiladi. Ayni jarayonda tilning estetik vazifa bajarishi to‘liq namoyon bo‘lmoqda.

“Shoir she‘rlarida qo‘llangan poetonimlar lingvopoetikasi” deb nomlangan to‘rtinchi faslda shoir she‘rlarida qo‘llangan onimlarning estetik vazifa bajarishi haqida so‘z boradi.

Badiiy matnda har qanday til birligi lingvopoetik yuk olib, ijodkorning badiiy niyatini yoritishga xizmat qilishi mumkin. Xususan, onomastik birliklar ham atash, nomlash, farqlash kabi leksik vazifalaridan tashqari bir qancha poetik vazifalarni bajaradi. Bugungi kunda tilshunoslikda **onimlar** lingvistik, lingvomadaniy, lingvopoetik jihatdan o‘rganilib kelinmoqda.

Poetonim – badiiy matnda poetik yuk olgan, asar g‘oyasini yoritishga xizmat qilgan, turli lingvopoetik xususiyatlarga ega bo‘lgan har qanday nom²⁰. Shavkat Rahmon she‘rlarida turli tarixiy shaxslar, shoirlar, mifologik obrazlar, joy nomlari onomastik metaforani hosil qilib, shoirning turli badiiy maqsadlarini ifoda etgan.

*Bilolni chaqirdim,
ey, buyuk qulim,
manov xoqonlarning quloqlarin och.
Ammoki **Bilol** yo‘q,
milyon **Jahl** bor,
milyon qo‘llarida qonsiragan tosh... (“Gul yig‘isi”)*

She‘rda intertekstuallik hodisasi mavjud. Uni tushunish va o‘zaro aloqadorlikni anglash uchun *Bilol* va *Jahl* obrazlari haqida bilimga ega bo‘lish talab etiladi. *Bilol* Islom dini tarixida payg‘ambarimizning sevimli birinchi muazzini va e‘tiqod va vijdon erkinligi uchun iroda bilan kurashgan sahoba sifatida mashhur. *Abu Jahl* Makka zodagonlaridan biri bo‘lib, Muhammad payg‘ambar (S.A.V.) targ‘ibotiga qarshi turgani, unga dushmanlik qilgani uchun la‘natlangan. Islom diniga ashaddiy dushman bo‘lgani bois Payg‘ambar *Abu-l-Hakam* nomini *Abu Jahl* deb o‘zgartirgan. Shu sababli *Abu Jahl* nomi she‘riyatda salbiy qahramon sifatida ramziylashgan. Shavkat Rahmon she‘ridagi “quloqlarini ochish” zaminida *Bilolning* azon aytishiga ishora bo‘lib, *hidoyatga boshla, imonga, ibodatga chaqir* mazmuni mujassam. Chunki ular g‘aflatda, quloqlari yopiq: ular haqiqatni eshitmaydilar... She‘r davomida *Bilol* yo‘qligi, qo‘llarida qonsiragan toshlari bo‘lgan million “*Abu Jahllar*” borligi afsus-nadomat bilan e‘tirof etiladi.

Umumlashtirib aytganda, Shavkat Rahmon onomastik birliklarni jiddiy poetik maqsad bilan qo‘llagan, bu birliklar badiiy matn ko‘p qatlamlilikini ta‘minlovchi poetik vosita sifatida shoir she‘rlari mazmunining g‘oyaviy-badiiy jihatdan baquvvat bo‘lishiga xizmat qilgan.

²⁰ Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик birliklarning lingvopoetikasi: Филол. фан. буйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 37.

Ikkinchi bobning beshinchi fasli “**Okkazional birliklarning qo‘llanilish xususiyatlari**” deb nomlanadi. Bu faslda shoir hosil qilgan so‘zlar haqida fikr yuritiladi.

Okkazional so‘zlar – ijodkorning individual uslubi va mahoratini namoyon qiluvchi birliklardan biri. Bunday so‘zlar muayyan nutq vaziyati, ehtiyoji tufayli yasalgan bo‘lib, o‘zining g‘ayriodatiyligi, ohorliliigi bilan ajralib turadi, faqat matndagina ma‘nosi to‘liq reallashadi. Sh.Rahmon ijodida okkazional so‘z yasalishining o‘ziga xos namunalari ko‘rish mumkin.

*Bezovta ruhdayman o‘zga yoqlardan...
G‘aflat to‘rlarida qolganda borliq,
bir nolam yangraydi **sukutgohlarda**:
hoy, odam, bormisan,
ovozing bormi?! (“Qizaloqning ermaklari”)*

Sukutgoh so‘zi ayrim tadqiqotlarda matndan ajratilgan holda *qabrison* so‘ziga ma‘nodosh sifatida tahlil qilingan. Uni Shavkat Rahmon she‘rlarida okkazional birlik deyish mumkin, chunki bu so‘z uning she‘rida yangi ma‘no qirrasiga ega. U “*majburan jim turadigan joy*”, “*haqiqatni ayta olmay sukut saqlaydigan joy*” ma‘nosida qo‘llangan bo‘lib, sobiq ijtimoiy tuzumga nisbatan “(*Haqiqatni*) *gapirish mumkin bo‘lmagan, jim turish kerak bo‘lgan joy*” ma‘nosini anglatadi. Bu so‘z ayni ma‘nosi bilan badiiy ta‘sirchanlikni hosil qilgan. Taqqoslab ko‘ring: *o‘yingoh* – o‘yin o‘tkaziladigan joy, jarayonlar doimo kuzatilmaydi. -goh qo‘shimchasi bilan yasalgan so‘zlarda vaqt bilan aloqadorlik bor. *Sukutgoh* okkazionalizmida vaqt bilan aloqador joy ma‘nosi hosil qilingan. Yasalgan so‘z badiiy mazmunda ko‘zda tutilgan poetik makonni to‘liq ifodalay oladi.

Shavkat Rahmon yasalmalarida olamni tasavvur etish, qabul qilish, his etish, anglash prizmalari aks etadiki, yangi so‘zlarda yorqinlik, ranginlik, kutilmaganlik belgilari yuqori bo‘lib, badiiy matnda estetik ta‘sir, obrazlilikni yaqqol aks ettira olishi bilan o‘ziga xosdir.

*Turkiston –
tarixi **harbistonlarda**,
to‘kilib bitdimi buyuk qomatlar?
Ruhi dod solmasdi qabrisonlarda
qaddini ko‘tarsa agar nomardlar. (“Sharhi hol”)*

Keltirilgan parchada Shavkat Rahmon *Turkiston* so‘zi yasalishi shaklida *harbiston* okkazional so‘zini hosil qiladi. Shoir kitobxon e‘tiborini Turkiston tarixidagi harbiy yurishlar, bosqinlar va ular natijasida yuzaga kelgan hodisalarga qaratishni istaydi. Shu maqsadda *harbiy yurishlarda bosib olingan yurt* ma‘nosini anglatuvchi *harbiston* so‘zini hosil qiladiki, okkazional yasalma nazarda tutilgan tushunchani o‘ziga xos tarzda, yangidan va ta‘sirchan ifodalash bilan birga matndagi *Turkiston*, *qabrison* so‘zlari bilan ohangdoshlik hosil qilib, nominativ, badiiy-estetik vazifa bajaradi. Shuningdek, shoir *Turkiston-harbiston-qabrison* so‘zlar tizmasi orqali Turkiston muxtoriyatining fojiali tarixiga ishora qiladi.

Bobning *“Shoir she’rlaridagi dialektizmlarning lingvopoetik imkoniyatlari”* deb nomlangan faslida shoir she’rlarida qo‘llangan dialektizmlar haqida so‘z boradi.

Badiiy matnda shevaga xos so‘zlar ham estetik vazifa bajaradi. Shoir she’rlarida *buvak, hulvo, shomurut, telvakezik* singari shevaga oid so‘zlarning qo‘llanishida shoirning muayyan badiiy-g‘oyaviy maqsadini ta’sirchan ifodalash, adabiy tilni ichki manba bilan boyitish, sheva so‘zlarini faollashtirish va bu orqali o‘zlikni anglashga intilish g‘oyasini aniq ifodalash kabi poetik vazifalar bajargani kuzatiladi.

Hulvo – shoirning sevimli so‘zlaridan. Bu fonetik qobig‘i butun, poetik jarangga ega so‘z shoirning e’tiborini tortadi. Shoir *hulvo* so‘zi bilan dastlab she’riy to‘plamini nomlaydi, keyinroq she’rlarida qo‘llaydi, hatto Rafael Albertining she’rlari tarjimasida ham foydalanadi. Bu haqda to‘plamda shunday yozilgan: “Darvoqe, to‘planning “Hulvo” deb nomlangani bejiz emas. Boychechak bahorning elchisi bo‘lsa, hulvo – yalpiz erka qizidir. Shoir Hulvoning xush bo‘ylarini ezgulikning munavvar nasimlari timsolida bizga taqdim etayotir”²¹. Shoirning bu so‘zni qo‘llashi, faollashtirishining o‘ziga xos sabablari bor: birinchidan, so‘z poetik jarangdorligi sabab *erka, erkin* semalari anglashilishi. Ikkinchidan, kitobxon uchun bu so‘z noodatiy bo‘lib, diqqatni tez tortish xususiyatiga ega. Uchinchidan, shoirning badiiy-g‘oyaviy maqsadlarini ham ifodalay olishi, ya’ni yalpiz doimo yashil rangda bo‘lishi va tetiklantiruvchi iforga egaligi Shavkat Rahmon she’rlarida ilgari surilgan erk, ozodlik g‘oyalariga mos bo‘lib, shoir unda milliylikni, o‘zlikka sobitlikni ko‘radi.

*Ertaga yomg‘irlar keladi,
gurkirab yashnaydi havolar,
hulvolar keladi, hulvolar,
oylarga yetajak navolar. (“Yaxshi niyat”)*

Demak, shoir she’rlarida qo‘llangan dialektizmlar poetik jarangga egaligi, ifodaviyligi, vazn talabiga ko‘ra qofiyadoshlik, ya’ni ohang butunligini hosil qilishi, kitobxon e’tiborini tez tortishi, ijodkorning badiiy-g‘oyaviy maqsadini ifodalashi bilan lingvopoetik ahamiyat kasb etadi.

Ishning uchinchi bobi **“Shavkat Rahmon she’riyatidagi sintaktik birliklarning lingvopoetik tadqiqi”** deb nomlanadi. Bu bobda shoir ijodida alohida ko‘zga tashlanib turadigan takror, xiazm, ironiya, antiteza, murojaat birliklari kabi sintaktik figuralar haqida so‘z yuritiladi.

Bobning birinchi fasli **“Shavkat Rahmon she’riyatida takror va uning o‘ziga xos ko‘rinishlari”** deb ataladi. Shavkat Rahmon she’rlarida sintaktik figuralarning ekspressiv bo‘yoqdorlikni vujudga keltirish imkoniyatlaridan samarali foydalana olgan. Shoir bunday sintaktik vositalar yordamida qahramon ruhiyatida kechayotgan isyon, quvonch, g‘azab, nafrat, qayg‘u kabi psixologik jarayonlarni aks ettirgan.

²¹ Раҳмон Шавкат. Хулво: Шеърлар. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 64 б.

Shavkat Rahmon she'rlarida takrorning anafora, epifora, akromonogramma, prozapodosis, sintaktik-grammatik kabi turlaridan foydalanib, ularning har biriga alohida poetik vazifa yuklagan. Takrorlar matnni shakllantiruvchi, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi, she'r bandlarini umumiy mazmunga birlashtiruvchi, ohang butunligini hosil qiluvchi birlik sifatida muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Prozapodosis – so'z yoki birikmalar takroriga asoslangan bo'lib, dastlabki misrada kelgan ma'lum bir leksik yoki sintaktik birlikning keyingi qator oxirida yana takror qo'llanishi demakdir. Bunda gap bo'lagi yoki birikma ifoda etgan ma'no yoki tushuncha tinglovchiga alohida urg'u berilgan holda yetkaziladi.

O'ldir,
ichingdagi xoinni o'ldir,
valida ko'ziga boqishdan avval,
ma'shuqa qo'ynida yotishdan avval,
zulmat ummoniga botishdan avval.
Yo'ldir bu,
nafsning botqog'i emas,
qilichning damiday chaqnagan yo'ldir.
Bu yo'lga yuzingni burishdan avval
O'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir.

Keltirilgan parchada birinchi banddagi *o'ldir* takroriy birligi keyingi qator oxirida rivojlantirilib *xoinni o'ldir* shaklida qo'llangan. Bu o'rinda kesimning buyruq shaklida takrorlanishi kitobxonning e'tiborini tez tortadi, xuddiki bayon qilinayotgan fikr unga qaratilganday tasavvur uyg'otadi. Epifora tarzida qo'llanib kelayotgan *avval* badiiy niyatni mazmunga mos ohang tasdig'ida rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Keyingi banddagi *yo'ldir* takroriy birligida ham epistrofa mavjud va takrorning bu usuliga shoirning ijodiy yondashuvi so'nggi baytda kuzatiladi. Dastlab *O'ldir, ichingdagi xoinni o'ldir* misrasi misralar o'rtasidagi epistrofani hosil qilgan bo'lsa, shoir badiiy niyatini yanada ta'sirliroq, bo'yoqdor ifodalash uchun bandlar orasida ham misralarni birlashtirish orqali epistrofik takrordan foydalanadi. Yaxshi asar turli mushohadalar, tahlillarni keltirib chiqaradi deyiladi. Takroriy birliklar har bir kitobxonning tafakkurida turli xulosalarni hosil qiladi. *Chin inson bo'lish uchun kamolot yo'lga qadam qo'yish, nafsni yengish* g'oyasi takrorlar orqali juda ta'sirli, bo'yoqdor ifodalangan. Takrorlar matnni shakllantirish, ohang tugalligini hosil qilish bilan birga uning quyma misralar tarzida kitobxon xotirasida o'rnatishida muhim vazifa bajargan. She'rda ham kontakt (yaqin masofali), ham distant (uzoq masofali) takrordan unumli foydalanilgan.

Ushbu bobning ikkinchi fasli "***Shoir she'riyatida xiazm ko'rinishidagi sintaktik qurilmalar badiiyati***" deb nomlanadi.

Xiazm grekcha – *chiasmus*, *xoch (krest)simon* ma'nosini anglatib, grekcha X tarzida joylashuv demakdir. Lingvistik atama sifatida u gaplarda bo'laklarning teskari joylashgan holda takrorlanishi asosida yuzaga chiquvchi

figuraga nisbatan qo‘llanadi²². O‘zbek tilshunosligida mazkur figurani alohida monografik planda o‘rgangan tadqiqotchi O.Mamaziyayevdir²³. Tadqiqotchi xiazmni poetik nutqda ishtirok etuvchi sintaktik figura sifatida baholaydi.

Chaqin bo‘lma,

Bo‘lma guldirak,

yerdan ko‘pam uzoqlab ketma. (“Chaqin bo‘lma”)

Keltirilgan misolda ketma-ket qo‘llanilgan gaplardagi bo‘laklar o‘rin almashganda ularning sinonimi qo‘llanib xiazmni yuzaga keltirgan. Misralardagi o‘ziga xos ritm va ohangdoshlik poetik nutqqa ekspressivlik bag‘ishlab, tinglovchi diqqatini tortishga, bo‘laklar ma‘nosini bo‘rttirib, ta‘kidlab ko‘rsatishga xizmat qilgan.

“*Ironiya va uning shoir ijodidagi o‘ziga xos ko‘rinishlari*” nomli uchinchi fasl Shavkat Rahmon ijodining asosiy mazmun doirasini qamrab olgan ironiya tahliliga bag‘ishlanadi.

Shavkat Rahmon ironiyadan mavjud ijtimoiy voqelikka o‘zining subyektiv munosabatini, davrning og‘riqli muammolarini, xalqning og‘ir turmush tarzini emotsional ifodalash vositasi sifatida foydalangan. Masalan:

Hammamiz quyoshda kuygan jizzamiz,

Qachon tiz cho‘kuvdik,

Hamon izzamiz...

Sirqirab og‘riydi shishgan tizzamiz

O‘rindan ozgina tursak maylimu?

Bu o‘rinda jizza – kuygan et, go‘sht ma‘nosida ishlatilib, inson tanasining mehnatda kuyishiga nisbatan qo‘llangan. “Sirqirab og‘riydi shishgan tizzamiz” misrasidagi *shishgan* epiteti “biz doimo tiz cho‘kib yashadik” ma‘nosiga ishora qiladi. Shoir badiiy vositalar orqali totalitar tuzum zulmi ostida ezilgan inson tasvirini badiiy gavdalantirgan bo‘lsa, so‘nggi misrada lirik qahramonning mavjud holatga isyoni *mayli* tasdiq so‘ziga *-mi* yuklamasini qo‘shib ishlatish orqali ifodalangan. Yuklamaning *-mu* tarzida qo‘llanishi matndan anglashilayotgan kesatiq, piching mazmunini kuchliroq ta‘kidlashga xizmat qilgan.

Yuqoridagi misolda ironik mazmun morfologik birliklar orqali ifodalangan bo‘lsa, navbatdagi she‘rda leksik birliklarda namoyon bo‘ladi:

O‘yladim tunov kun ko‘ylagim yechib,

paxta ekilmagan badanim qopti.

Shoir paxta rejasini bajarish birinchi o‘ringa qo‘yilgan, maktab, bog‘cha hovlilariga, hatto uylarning tomlariga ham paxta ekib tashlangan davrning ayanchli manzaralarini tasvirlash uchun ironiyadan foydalanadi. Zaharxanda kulgi qo‘zg‘atuvchi gap (*paxta ekilmagan badanim qopti*) zamirida mash‘um paxta yakkahokimligi siyosatining bir xalq boshiga yog‘dirgan aql bovar qilmas fojialari aks etgan.

²² Гаспаров М.Л. Хиазм // Литературный энциклопедический словарь / Под ред. В.М. Кожевникова, П.А. Николаева. – М.: Сов. энциклопедия, 1987. – С. 482.

²³ Мамазияев О. Ўзбек поэтик нутқида хиазм ва градация: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Фарғона, 2004. – Б. 26.

Shavkat Rahmon she'rlarida ironik mazmun intonatsion-fonetik, morfologik, leksik, frazeologik, sintaktik vositalar orqali hosil qilingan bo'lib, bu haqida tadqiqotda batafsil fikr yuritilgan.

Uchinchi bobning "*Antiteza va uning badiiy til imkoniyatlari*" nomli to'rtinchi faslida shoir ijodidagi subyektiv baho va poetik maqsadning antiteza vositasida verballashuvi tahlil qilinadi.

Poetik nutqda **antiteza** bir-biriga zid, qarama-qarshi bo'lgan ikki tushuncha, obraz, voqea-hodisalar yoki ularning biror-bir belgisini qiyoslash asosida yuzaga keladi. She'rda birdan ortiq zidlanuvchi birliklarning qo'llanishi kontrastlikni yorqinroq ifodalashga xizmat qilgan.

*Bu so'zni bir umr aytmay yashadim,
har **shodlik** kelganda yurdim sekinroq.
G'am so'zin elimdan **avvalroq** aytdim,
baxt so'zin aytaman,
eldan **keyinroq**. ("Baxt so'zi")*

Ba'zan shoir she'rlarida birdan ortiq qo'llangan antitezalar borki, ular mustabid tuzum kirdikorlarini o'tkir kinoya bilan bo'yoqdor tasvirlash imkonini beradi.

*Ijozat berdilar,
qidir dedilar,
kun sayin ganjina talab qildilar,
tillo oldilar-u, zahar berdilar,
zig'irday aybingni shoxga ildilar. ("Bir suvrat taassuroti")*

O'lkamiz tabiiy boyliklarga boy. Sobiq Ittifoq paytida qimmatli metall, oltinlar markazga, Moskvaga tashilgan. Bu she'rda *tillo oldilar* jumlasini orqali ayni hodisalar aks ettirilgan. Shuningdek, sanoatda paxta yakkahokimligi o'rnatilgan bo'lib, yerdan tez va mo'l hosil olish uchun turli kimyoviy dorilar ishlatilishi natijasida yer, o'simlik va hayvonot olami, insonlarda zaharlanish orqali turli kasalliklar paydo bo'lgan, ekologiya falokat yoqasiga kelib qolgan. Bu holatni shoir she'rda *zahar berdilar* jumlasini orqali ifodalagan. *Tillo* eng foydali, *zahar* eng zararli tushunchalariga ko'ra o'zaro zid munosabat hosil qilmoqda. *Zig'irday*²⁴ so'zining "O'zbek tilining izohli lug'atida" "juda kichkina, zig'ir urug'icha" ma'nolari berilgan. Xalq o'rtasida biror-bir kichik narsani hamma ko'rishi uchun daraxt shoxiga ilib qo'yib namoyish qilinadi. Shoir bu holatdan foydalangan holda *shoxga ilmoq* iborasini hosil qiladi va uni matnda kichkina narsani katta qilib ko'rsatish ma'nosida qo'llaydi. Natijada *zig'irday* so'zi *shoxga ilmoq* iborasi bilan zid munosabat hosil qiladi, agar *Ijozat berdilar* misrasi bilan aloqalantirilsa she'r mazmuni yanada reallashadi. Matn tag zamirida butun Ittifoqqa "o'zbek ishi – paxta ishi" tarzidagi tuhmatlarga ishora qilinayotganligi anglashiladi. Shavkat Rahmon kontrast tasvirlar orqali sobiq tuzumning asl maqsadi Turkiston o'lkasida teng huquqli ishchilar jamiyatini qurish emas, balki bu yurtidan o'z manfaatlarini yo'lida yulg'ichlarcha foydalanish ekanligini achchiq kesatq bilan tasvirlab bergan.

²⁴ O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 6-jild. X – Ch. – Тошкент: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 378.

Uchinchi bobning beshinchi fasli “*Murojaat birliklariga yuklatilgan poetik maqsad tahlili*” deb nomlanadi. Unda sintaktik figuralardan biri hisoblangan murojaat birliklari nafaqat murojaat qilish, chaqirish, undash vazifasini, balki so‘zlovchining subyektiv munosabatini, turli ma’no nozikliklarini aks ettirib, lingvopoetik vazifa bajarishi haqida so‘z boradi. Shoir she’rlarida yerga, chumoliga, tuyg‘uga, qushlarga, bulbulga, yurakka murojaat qilingan va ularda shoirning lirik “meni”, erka ko‘ngli va shaxs sifatidagi ijtimoiy munosabati aks etadi.

Tilimizda onaga nisbatan *ena* so‘zi ham ishlatiladi, so‘zlashuv uslubida bu so‘z aynan chorasiz qolganda, kishi boshiga biror falokat tushganda qo‘llanadi va ko‘chma ma’noda *Ena deb yubordim, enamni ko‘rdim* kabi jumlar ishlatiladi. Tilimizni eng nozik jihatlarigacha bilgan shoir bu so‘zni so‘zlashuv uslubidagi ma’nosiga ishora qiluvchi mazmuniga ko‘ra badiiy matnda qo‘llaydi:

*Ena-ey,
Ena yer,
qonimni ichgil,
tezroq ado bo‘lsin jismimda xo‘rlik.* (“Bir xoin xususida”)

Murojaat birliklari undov so‘zlar, sifatlovchilar bilan birga kelib, e’tiborni tortish bilan birga temp, intonatsiyaga ta’sir qiladi.

*Ay, qilichday tuyg‘u,
ay, qotil tuyg‘u,
bas, ortiq qiynama kimsasiz dashtda,
yuzimga yuzini qo‘ysin o‘shal gul,
dilimning qa‘rini chavaqlab tashla!* (“Munojot”)

Shoir she’rlariga xos xususiyat unda zulfiqorlik, xaloskorlik ruhining mavjudligidir. Bu tuyg‘u – erksizlikni qilichday kesadigan, qaramlikning qotili bo‘lgan tuyg‘u. *Gul* – erk ramzi. Shuning uchun u erkka erishsa, millatni ozod ko‘rsa, bas. Bu o‘rinda murojaat birligi badiiy mazmunni anglashda ochqich vazifasini bajarmoqda. She’r bandining undov so‘zlar, sifatlovchili kengaygan murojaat birligi bilan boshlanishi mazmunga mos yuqori tempni hosil qilib, shunga muvofiq emotsionallik, obrazlilik ham oshgan.

Shavkat Rahmon murojaat birliklarining muayyan turlaridan unumli foydalangan. U o‘zbek tilining ichki imkoniyatlarini bilgani holda murojaat birliklariga nozik ma’nolar yuklay olgan, ularni badiiy maqsadiga mos ravishda qo‘llagan va she’rlarining jozibadorligini ta’minlagan.

XULOSA

1. She’riy nutqning lingvopoetik tahlilida matnda barcha sath birliklarining poetik aktuallashuviga ko‘ra funksional imkoniyatlari, har bir birlikka ijodkor tomonidan qanday vazifa yuklanganligi va bu vazifa qanday uddalanganligiga alohida e’tibor qaratiladi. Til birliklarining voqea-hodisa bayonida, poetik manzara, his-tuyg‘u yoki kechinmalar tasvirida o‘z ifoda imkoniyati, shu bilan birga, aniq vazifasi mavjud. She’riy matnning

lingvopoetik tahlili ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, oydinlashtirish, lisoniy jihatdan dalillash uchun xizmat qiladi.

2. Shavkat Rahmon she'rlarining til xususiyatlarini *jasorat, erk, vatanparvarlik, haqparvarlik, mardlik, millatparvarlik* kabi mavzular doirasini yoritishga xizmat qilgan leksik birliklarning konnotativ ma'no qirralarini, ruhiyat tasvirining lisoniy voqelanish jarayonlarini lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida tadqiq etish o'zbek adabiy tili taraqqiyotini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Shavkat Rahmon she'rlarida unlilarning cho'zib talaffuz qilinishi, undoshlarning qavatlanishi, ayniqsa, onomatoplar, alliteratsiya va asonans orqali ifodalangan turli ma'no nozikliklarining obrazli ifodalanishi kitobxon sezimlariga ta'sir etishida muhim lingvopoetik vositaga aylangan.

4. Shoir she'riyatida badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lgan epitet badiiy niyatni ohorli yetkazishda, silsilaviy mazmunga ega bo'lgan poetik obrazlarning shakllanishida muhim o'ringa ega. Ayniqsa, *bo'ydoq shamol, oq ro'mol yopingan yig'i, zulfiqor ruh, sokin isyon, tirik so'z, soqov quduqlar* kabi poetik bo'yoqdor individual epitetlar shoir badiiy mahoratiga chizgilar berib, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarining kengligini ko'rsata oladi.

5. Shavkat Rahmon she'rlarida faol qo'llanuvchi poetik so'zlar bor, ulardan biri – *tosh* leksemasi. Shoir matnda shunday badiiy muhit yaratadiki, so'z boshqa so'zlar mazmuniy ta'sirida yangi metaforik ma'noga ega bo'lib, har bir hosil qilingan ko'chma ma'no alohida mazmunga, poetik bo'yoqqa ega bo'ladi. Bu shoirning metafora hosil qilishining o'ziga xos uslubini belgilaydi.

6. Shavkat Rahmon ijodida so'zning ifoda imkoniyatidan o'ta ustalik bilan foydalanishga intilish, tasvirga favqulodda go'zallik bag'ishlovchi ohorli o'xshatishlarni qo'llash ko'zga yaqqol tashlanadi. U qo'llagan muallif o'xshatishlari va jonlantirishlar tasvir tiniqligi, hissiy to'yinganlik, obrazlilik bilan lingvopoetik qimmat kasb etadi.

7. She'riy matnda qo'llangan dialektizmlarning poetik jarangga egaligi, ifodaviyligi muhim unsur hisoblanib, Shavkat Rahmon she'rlarida ularning ohang butunligini hosil qilish, kitobxon e'tiborini tez tortish, ijodkorning badiiy-g'oyaviy maqsadini ifodalash kabi poetik vazifalari faollashishi namoyon bo'ldi, shuningdek, she'rlarda shevaga oid so'zlarning ishlatilishida shoirning muayyan badiiy-g'oyaviy maqsadini ta'sirchan ifodalash bilan birga, adabiy tilni shevaga oid go'zal so'zlar bilan boyitish, sheva so'zlarni faollashtirish, bu orqali o'zlikni anglashga intilish g'oyasini aniq ifodalash kabi lingvopoetik vazifalar bajargani kuzatildi.

8. Shavkat Rahmon she'riyatida onomastik birliklar poetik jihatdan aktuallashtirish bo'lib, uning she'rlarida bunday poetonimlarning antroponim, toponim kabi ko'rinishlari ko'p uchraydi. Bu birliklar badiiy matn mazmunining ko'pqatlamliligini ta'minlovchi poetik vosita sifatida shoir she'rlarining badiiy boy va o'ta ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan.

9. Shavkat Rahmon she'rlarida takrorning anafora, epifora, akromonogramma, prozapodosis, sintaktik-grammatik kabi turlaridan foydalanib, ularning har biriga alohida poetik vazifa yuklagan. Takrorlar

matnni shakllantiruvchi, ifoda ta'sirchanligini orttiruvchi, she'r bandlarini umumiy mazmunga birlashtiruvchi, ohang butunligini hosil qiluvchi birlik sifatida muhim lingvopoetik vazifa bajargan.

10. Shavkat Rahmon she'rlarida ironiyadan mavjud ijtimoiy voqelikka shoirning subyektiv munosabatini, davrning og'riqli muammolarini, xalqning og'ir turmush tarzini emotsional ifodalash vositasi sifatida foydalangan. Kinoyaviy mazmun intonatsion-fonetik, grammatik, leksik, frazeologik, sintaktik vositalar orqali hosil qilingan.

11. Shavkat Rahmon she'rlarida antitezadan mahorat bilan foydalangan. Natijada muqoyasa, qarshilantirish, zidlash rakursida badiiy matnning favqulodda ta'sirchan chiqishiga erisha olgan.

12. Shoir she'rlarida sintaktik figuralardan biri hisoblangan murojaat birliklari nafaqat murojaat qilish, chaqirish, undash vazifasini, shuningdek, so'zlovchining subyektiv munosabatini, turli ma'no nozikliklarini ifodalashi bilan lingvopoetik vazifa bajargan.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc. 02/30.12.2019.Fil.46.03 AT THE INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE,
LITERATURE AND FOLKLORE**

INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE

YUNUSOVA JAMILA BOLTABOYEVNA

LINGUOPOETIC FEATURES OF SHAVKAT RAHMON'S POETRY

10.00.01 – Uzbek language

**DISSERTATION ABSTRACT FOR DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
IN PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The theme of (PhD) dissertation is registered by Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under the number B2021.2.PhD/Fil1732.

The dissertation was carried out at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website of www.tai.uz and the information and educational portal "Ziyonet" www.ziyonet.uz.

Scientific Supervisor:

Yuldashev Marufjan Muhammedjanovich
doctor of philological sciences, professor

Official opponents:

Hakimova Muhayyo Karimovna
doctor of philological sciences, professor

Ahmedova Nargiza Shikhnazarovna
Candidate of Philological Sciences, Associate
Professor

Leading institution:

Kokand State University

The defense of dissertation will be held on 4 december 2025 at 14⁰⁰ at the session of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 on award scientific degrees at the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences (Address: 100060, Tashkent, Shakhrisabz street, 5. Tel: (99871) 233-36-50, fax: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz)

The dissertation available at the Main Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (registered by the number 91). Address: 100100, Tashkent, Ziyolilar street, 13. Tel: (99871) 262-74-58.

The abstract of the dissertation was distributed on 20 november 2025.

(Register protocol on N^o14 RD.11, 2025)

N.M. Mahmudov

Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of sciences on philology, professor

A.M. Hasanov

Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of sciences on philology, senior researcher

D.S. Xudoyberganova

Chairman of the academic seminar under the scientific council awarding scientific degrees, Doctor of sciences on philology, professor



INTRODUCTION

(Abstract of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In this context, exploring the language employed by writers and poets in their works has become increasingly important. In recent years, the anthropocentric approach which studies language without separating it from its speaker has been rapidly developing in world linguistics. In particular, in the study of literary language, special attention is being given to analyzing the expressive potential of various linguistic units that serve to reveal the author's artistic purpose. Today, the field of linguo-poetics is evolving under the mutual influence of the research principles of linguistics and literary studies, as well as the growing need for an in-depth exploration of the expressive capacities of language. In modern society, the conditions of globalization and digital communication are transforming the ways language is used, which, in turn, necessitates a deeper study of the sociocultural and aesthetic functions of the national poetic language. Linguo-poetics investigates how the worldview, experience, and emotions of writers and poets are expressed through linguistic means. This discipline helps uncover the profound meanings and subtle allusions underlying literary works while also providing insight into the nature of linguo-poetically actualized units of language. In this regard, studying the language of writers' and poets' works has become an issue of pressing importance.

In world linguistics, the study of artistic language problems based on new scientific concepts – including the examination of literary texts from the perspective of the human factor and the analysis of the role and function of linguistic units in shaping a literary work is regarded as one of the important scholarly issues. Today, linguo-poetics is rapidly developing as an independent field of research in this direction. Linguo-poetics not only investigates the language of literary texts, the unity of form and content, and the characteristics and mechanisms by which linguistic units fulfill aesthetic functions within a literary work, but also explores theoretical and practical aspects such as the writer's mastery of artistic language, linguistic richness, and methods of meaning expression. In this sense, identifying the aesthetic potential of poetic language and revealing the poet's skillful use of the national language are considered among the pressing issues of linguo-poetics.

In the years of independence, the issues of honoring our spiritual and cultural values and strengthening respect for our native language have risen to a leading position in our country. Indeed, *“the Uzbek language, one of the world's ancient and rich languages, is for our people a symbol of national identity and independent statehood, an invaluable spiritual treasure, and a great value.”*²⁵ From this perspective, identifying the poetic functions of linguistic units, studying the theoretical issues of linguo-poetics, and defining its place within the system of emerging sciences are among the key tasks of contemporary Uzbek linguistics. In

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2019 йил, 22 октябрь.

particular, analyzing the language of specific authors' works from a linguo-poetic standpoint plays an important role in determining the development and perfection of the Uzbek literary language. The courageous poet of the Uzbek people, Shavkat Rahmon, is among those creators who elevated the artistic power of the Uzbek language to a higher level through his poetry. His creative work has been extensively studied from a literary perspective; however, examining the language of his poetry within the linguo-poetic framework remains one of the pressing issues of modern national linguistics. Indeed, Shavkat Rahmon is a poet who enriched Uzbek poetry with new tones and artistic expressions, fully revealed the potential of the national language, and imbued it with a renewed spirit.

This dissertation work serves to a certain extent in ensuring the implementation of the tasks set out in the decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", dated February 17, 2017 No. PR-2789 "On further improvement of the activities of the Academy of Sciences, the organization, management and financing of scientific research work", dated October 21, 2019 No. PD-5850 "On measures to radically increase the prestige and status of the Uzbek language as the state language"; dated October 20, 2020 No. PD-6084 "On measures to further develop the Uzbek language and improve language policy in our country", as well as other regulatory and legal documents.

The accordance of research with the priorities of the development of science and technology of the Republic. The research was carried out within the framework of the priority direction of the development of science and technology of the republic I. "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state."

The extent of study of the problem. In recent years, one of the issues that has attracted the attention of philologists around the world is the study of how various linguistic units in works of art serve the creative artistic intention of the creator. The first studies devoted to the linguistic features of a work of art were carried out by such scientists as V. Vinogradov, G. O. Vinokur, A. A. Potebnya, L. V. Shcherba, V. Y. Zadornova, A. A. Lipgart, who emphasized the need to pay special attention to the analysis of linguistic phenomena in the process of studying a literary text.

In Uzbek linguistics, issues such as the problems of the artistic language, the language skills of a particular artist, and the linguopoetic study of the artistic text have also been specially studied. In particular, the research of linguists such as E. Qilichev, B. Orinbaev, S. Karimov, A. Nurmonov, N. Mahmudov, I. Mirzaev, M. Yakubbekova, M. Yoldashev, D. Andaniyazova, Sh. Toshkhojeva, Z. Muqimova, M. Abdupattoev, Z. Ma'rufova, Sh. Norova, M. Tokhtaboeva, G. Andaniyazova, A. Ahmedova is of great scientific and theoretical importance.²⁶ It should be noted

²⁶ Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент, 1982; Ўринбоев Б, Қўнғуров Р. Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990; Каримов С. Бадий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари: Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1994; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; This author. Абдулла Қаҳҳор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; This author. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар /

that in Uzbek philology, the vocabulary of many writers has been studied from a linguopoetic aspect. The poems of the courageous poet of the Uzbek people, Shavkat Rahmon, are distinguished by the originality of the language, clarity of thought, intense spirit and sharpness of words, and a wealth of unexpected artistic solutions. Shavkat Rahmon's work has been studied in literary studies²⁷. Although linguistics has studied the lexical and grammatical means that create metaphor in Shavkat Rahmon's poetry²⁸, to date the artistic language features of the poet's poems have not been specifically studied from a linguopoetic aspect.

The connection of the research with the research work of the research institution where the dissertation was completed. The dissertation was completed within the framework of the research plan of the Uzbek language department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, on the topic "Modern trends in Uzbek linguistics: problems and solutions".

The purpose of the study. It consists in identifying the poetically actualized linguistic units in Shavkat Rahmon's poems and, through their linguo-poetic analysis, revealing the poet's mastery in the use of language and his contribution to the development of the Uzbek literary language.

The tasks of the research:

To reveal the poetic potential of the phonetic and phonographic devices and onomatopoeic elements that ensure the individuality of Shavkat Rahmon's poetry;

to highlight the author's mastery of word usage through the study of epithets, metaphors, personifications, and similes;

to reveal the role of poetonyms, occasional units, and dialectisms in enhancing the artistic expressiveness of the poet's works;

to determine the structural-semantic and poetic nature of repetitive units, chiasmus, and antithesis;

